

Лица не входящие в состав рабочей силы. Включает население трудоспособного возраста, которое не может быть отнесено ни к работающим (по найму и не по найму, неформально), ни к безработным и незанятым лицам, ни к трудовым мигрантам, выезжающим на заработки за рубежом. Исходя из этого, лица не входящие в состав рабочей силы – это учащиеся в трудоспособном возрасте, занятые на учебе с отрывом от производства; женщины, находящиеся в отпуске по уходу за ребенком до достижения им возраста 2-х лет; а также лица трудоспособного возраста, которые добровольно не желают работать (по причине болезни, состояния здоровья, семейным обстоятельствам), то есть не ищут работу и не готовы приступить к ней, если она будет представлена.

Основным источником данных по перечисленным показателям являются **обследования рабочей силы**. В настоящее время в Узбекистане (и странах СНГ) эти обследования проводятся на основе выборочного метода наблюдений путем непосредственного опроса (интервью) граждан. Участие населения в обследованиях является добровольным.

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KREDITLASH JARAYONIGA XULQ-ATVOR OMILLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Juraeva Sevara

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti katta o'qituvchisi

Respublikamizda bank tizimini isloh qilish, mavjud aktiv va passiv operatsiyalarni jadallashtirish hamda samaradorligini oshirish, banklarda innovatsiyalarni joriy etish, yangi bank xizmat turlarini mijozlarga taqdim etish ularni har tomonlama o'rganish kabi muhim vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Ayniqsa, bank faoliyatining eng yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishi bo'lgan kreditlash tizimini rivojlantirish moliyaviy risklarni oldini olgan holda bu sohada mijozlarni to'lovga layoqatliligini baholash tizimini kengaytirishni, keng ko'lamda potensial mijozlarni jalb etish uslubiyotini ishlab chiqishni, nafaqat moliyaviy va demografik omillarni, shuningdek xulq-atvor mezonlarini inobatga olgan holda kredit skoring tizimini tashkil etishni taqozo etmoqda. Jahon mamlakatlari tajribasidan ham ko'rishimiz mumkinki, taklif qilinayotgan bank xizmatlariga mijozlar talabini oshirishda, muammoli kreditlarni oldini olishda hamda likvidlilikni mustahkamlashda xulq atvor iqtisodiyoti omillarini joriy etishning roli beqiyos.

Bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ko'lami ham mazkur dissertatsiya ishining yanada dolzarb ekanligini belgilaydi. Respublikamiz prezidenti tomonidan so'ngi yillarda banklarning aholining keng qatlamiga mo'ljallangan xizmatlarini ko'paytirish hamda kreditlash tartibini soddalashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” farmoni bo‘yicha amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning samarali muvofiqlashtirilishi xususan tijorat banklari kredit operatsiyalarini takomillashuvini mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida ko‘rish mumkin.

Moliyaviy qarorlar ko‘pgina vaziyatlarda insonlarning kundalik turmush-tarzining ajralmas qismi hisoblanar ekan, bu jarayonlarni o‘rganish barcha iqtisodiyot tarmoqlarida ko‘zlangan samaradorlikka erishishda muhim hisoblanadi. Ma’lumki, insonlar xulq-atvori o‘zgarishlarni darxol anglaydi va ma’lum bir iqtisodiyot naflilikka erishishda, jumladan tovar va xizmatlarni mijozlarga taqdim etishda ularga noodatiy bo‘lgan mahsulotlar taqdim etilganda yoki o‘zgarishlar bilan murojaat qilinganda mijozlar e’tiborini ko‘proq jalb qilgan holda foydalilik darajasini maksimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

Kredit to‘loviga layoqatlilikni aniqlashning an’anaviy usullariga ko‘ra mijozning kredit tarixi, daromadlari tarixi va qisqacha qilib aytganda o‘tgan davr uchun mijozlar moliyaviy holatini baholash cheklangan miqdorda kreditlar ajratishga olib kelayotganligi guvohi bo‘lishimiz mumkin. Amaldagi kredit koring tizimi kredit qaytmaslik xavf-xatarini to‘liq bartaraf etmasligini inobatga olgan holda, o‘rganilgan xarakter va xulqni aniqlash omillarini kredit ajratishda va yangi mijozlarni jalb qilishda qo‘llash amaliyoti ijobiy natijalar berishi kutilmoqda.

Ta’kidlash joizki, xulq-atvor iqtisodiyoti hozigi kunda moliya va bank tizimida ratsional qarorlarni qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganuvchi muhim sohalardan biri sifatida qayd etilmoqda. Mijozlarni keng ko‘lamda jalb qilish, resurslarni samarali taqsimlash, muommoli kreditlarni oldini olish, kredit portfelini oshirish va boshqa bir qator samarali natijalarga xulq-atvor mezonlarini joriy etish orqali erish mumkin. Bundan tashqari, insonlar xarakter xususiyatlarini aniqlovchi omillarni o‘z ichiga olgan skoring modellaridan foydalangan holda kredit riskini kamaytirib kreditlashni joriy etish kreditlash tizimi faoliyatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan mazkur mavzusi mamlakatimizda ayni paytdagi dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatib beradi.

Darhaqiqat, amaliyotda mamlakatimizning barcha tijorat banklari, mikrokredit va lizing tashkilotlari kredit berish jarayonlaridagi qarorlarni mijozlarning moliyaviy va demografik omillaridan hamda kredit tarixidan kelib chiqib qabul qilishadi va shaxsiy xususiyatlarni deyarli hisobga olishmaydi. Shuningdek, Xulq-atvor mezonlari asosida ko‘proq mijozlarni jalb etish, irratsional moliyaviy qarorlarni qabul qilinishini oldini olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy jarayonlar va xususiyatlarni bir butun o‘rganadigan (psixologik interaksionizm) uslubiy yondashuvlariga ko‘ra, har qanday shaxslarning xatti-harakatlari nafaqat vaziyat va iqtisodiy omillar, balki ularning ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlari bilan ham izohlanadi. Demak, ushbu yondashuvga asosan, qarz oluvchilarning shaxsiy va

psixologik xususiyatlari kreditni qaytarish xatti-harakatlarining asosiy ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin.

Xalqaro amaliyotdagi ayrim tajribalarga ko'ra, moliyaviy institutlar global miqyosda kredit xizmatlarini ko'rsatishda aynan psixometrik kredit ballari tizimini sinab ko'rishmoqda va bu faoliyatni rivojlantirmoqdalar. Psixologik omillarga asoslangan mazkur metodologiya mikrokredit xizmatlari mijozlarining kreditlarni o'z vaqtida to'lash xatti-harakatlarini aniqlashga xizmat qilmoqda.

Jismoniy shaxslarning kredit xatti-harakatlarini o'zida ifodalaydigan psixometrik testlar dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida amalga oshirilmoqda va ular 91 foiz aniqlik bilan qarz oluvchilarning moliyaviy qarorlarini to'liq bashorat qilishga imkon bermoqda[1]. Fikrimizcha, ushbu metodologiyani rivojlantirish ayni paytda kredit tarixiga ega bo'lmaganligi va past yoki o'rta daromadliligi sababli skoring bali kam, ammo kredit qarzini o'z muddatida to'lashga qodir bo'lgan shaxslarning kredit xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, kam daromadliligi va kredit tarixining yo'qligi sababli kredit olish imkoniyati cheklanganlar uchun kredit imkoniyatlarini taqdim etish orqali kambag'allik darajasini kamaytirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda bu sohada tadqiqotlar hali o'tkazilmagan. Xalqaro tadqiqotlar esa, shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy va demografik ko'rsatkichlar kreditlarni o'z muddatida to'lanishini bashorat qilishda keng qo'llaniladi. Ammo, so'nggi o'n yillikda nafaqat iqtisodiy va demografik omillar, balki shaxsiy xususiyatlar, munosabat va xatti-harakatlardan iborat psixologik omillar ham qarz bilan bog'liq tadqiqotlarda to'lov xatti-harakatlarining potensial bashoratchilari sifatida ta'kidlangan[2].

Shu jihatdan, kredit qarzlarning o'z vaqtida qaytarilishi ma'lum darajada xulq-atvor iqtisodiyotiga bog'liq ekanligini asoslash maqsadida kreditni qaytarish xatti-harakatini oldindan belgilab beruvchi psixologik omillarni va ularning ta'sir darajasini o'rganib chiqamiz. Nazarimizda, qarz oluvchilarning samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilishi, o'zini tuta bilishi, mas'uliyati, vijdonlilik, fidoyilik, asabiylik va pulga bo'lgan munosabati kabi psixologik omillarni o'zida ifodalovchi muayyan so'rovnomalar (test)larni o'tkazish va tahlil qilish asosida ularning kredit risklarini aniqlash va prognoz qilish imkoniyati mavjud. Shu sababdan, qarz oluvchilarning moliyaviy (skoring ball, oylik daromad), psixologik va demografik (yosh, jins, oilaviy ahvoli, farzandlar soni, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi) ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi va ta'sirchanligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. LenddoEFL. Available online: <https://lenddoefl.com> (accessed on 17 March 2021).
2. Özşahin, M.; Yürür, S.; Coşkun, E. A Field Research to Identify Psychological Factors Influencing the Debt Repayment Behavior in Turkey. *EMAJ Emerg. Mark. J.* **2019**, *8*, 26–33, doi:10.5195/emaj.2018.156.